

# LIPASE -LIPAZA

Lipazani enzimatik kolorimetrik tekshirish. Kinetik.



Kod: HBE09      4x10ml

**2-8°C temperaturada saqlansin. Suyuqlik. Standart ilova qilinadi.**

## KLINIK QIYMATI

Lipaza - bu yog 'kislotalarida glitserin efirlari gidrolizini katalizlaydigan ozuqa moddalarini singdirish va o'lashtirish uchun zarur bo'lgan oshqozon osti bezi fermenti.

Lipazni aniqlashdan o'tkir va surunkali pankreatit, hamda oshqozon osti bezi kanallari obstruktsiyasi, shuningdek oshqozon osti bezi kasalliklarini tashhislash uchun foydalaniлади.

## USUL PRINTSIPSI

Quyidagi reaksiya lipazani to'g'ridan-to'g'ri enzematik - fermentativ aniqlashni o'z ichiga oladi:

1-2 - O - diauril-rats-glitserinli-3-glutarin kislotosi-(6-metilrezorufini)-efir

Lipaza → 1-2-O-diauril-rats-glitserol+Glutarik-6- metilrezorufinli -efir(barqaror emas)

OH<sup>-</sup>

Glutarin kislotosi + Metilrezorufin

Metilrezorufin hosil bo'lish tezligi namunadagi lipazaning katalitik konstruktivisiga mutanosibdir.

## REAKTIV TARKIBI

Reaktiv R 1 Bufer	TRISpH 8.3 ..... 40mmol/l Kolipaza ..... ≥1mg/l Dezoksiksolat ..... 1.8mmol/l Taurodezoksolat ..... 7.2mmol/l
Reaktiv R 2 Substrat	Tartrat pH4.0 ..... 15mmol/l Substrat Lipaza ..... ≥0.7mmol/l Kalsiy xlorid (CaCl <sub>2</sub> ) ..... 0.1mmol/l
Standart	Liofillangan inson zardobi. Lipazaning faolligi (37°C da ME / metilrezofurin) flakon yorlig'ida ko'rsatilgan.

Faqat *in vitro* diagnostikasi foydalanish uchun.

## TAYYORLASH

1-Reaktiv, 2-Reaktiv foydalanish uchun tayyor. Ochilgandan keyin barqarorlik 2-8°C temperaturada 90 kun.

2-Reaktiv: Foydalanishdan oldin ehtiyojkorlik bilan aralashtiring (1-Eslatma).

Standart: bir flakon ichidagilar 1 ml suv bilan aralashtiriladi. Bir xil eritma hosil bo'lgunga qadar ehtiyojkorlik bilan aralashtiring. Barqarorlik: 2-8°C temperaturada 7 kun. Kalibrator eritmasini kichik sig'imgilarga taqsimlang va muzlatib qo'ying. Barqarorlik: -20°C temperaturada 3 oy.

## SAQLASH VA BARQARORLIK

To'planning barcha komponentlari yorug'lik va ifloslanishdan himoyalangan joyda, 2-8°C temperaturada, zinch yopilgan holda yorliqda ko'rsatilgan yaroqlilik muddati (Exp.date) tugagunga qadar barqaror, o'zgarmas bo'ladi.

Reaktiv toza eritma bo'lishi kerak. Agar xiralashish yoki quyqa hosil bo'lsa yoki bo'sh probaning optik zichligi 580 nm ≥ 1,4 bo'lsa, reaktivlar tashlab yuborilishi kerak.

2-Reaktiv to'q sariq rangli xira emulsiya, agar rangi qizil tus olsa, u holda reaktivni tashlab yuborish kerak bo'ladi.

## OO'SHIMCHA JIHOZLAR

- 580 nm ni o'lchovchi spektrofotometr yoki kolorimetr.

- 37°C(±0.1°C) temperaturadagi termostat

- 1.0 sm optik yo'nga mos keluvchi kyuvetlar.

- Asosiy laboratoriya uskunalarini (2-Eslatma).

## NAMUNALAR

Natriy sitrat, EDTA yoki geparinli yangi zardob yoki plazma.

Barqarorlik: 2-8°C temperaturada 2 kun.

## JARAYON

1. To'lqin uzunligi: 580 nm; Doimiy temperatura 37°C; kyuvet - optik yo'l 1sm;

2. Asbobni distillangan suv bilan nolga o'rnatning.

3. Kyuvetga tomizing:

	Bo'sh proba	Standart	Namuna
Distillangan suv	10µl	--	--
Standart	--	10µl	--
Namuna	--	--	10µl
1-Reaktiv	1ml	1ml	1ml
2-Reaktiv	200 µl	200 µl	200 µl

37°C temperaturada 1 daqiqa davomida aralashtiring va inkubatsiya qiling. Namunaning boshlang'ich optik zichligini ( $A_1$ ) o'lchang, sekundomerni ishga tushiring va 2 daqiqa davomida 1 daqiqa interval bilan optik zichligini o'lchang. Daqiqa davomida optik zichlik va optik zichlik qiymatlari o'rtasidagi farqni hisoblang. ( $\Delta A/daq$ )

## HISOBLASH

Lipaza (U/L)

$$\frac{\Delta A/daq \text{ Namuna} - \Delta A/daq \text{ Bo'sh proba}}{\Delta A/daq \text{ Standart} - \Delta A/daq \text{ Bo'sh proba}} \times \text{lipaza standartining faoliyi}$$

Bir xalqaro birlik (ME) - standart sharoitlarda, bir daqiqa qida 1 µmol substratni o'zgartiradigan enzim - ferment miqdori. Konsentratsiya namunadagi bir litr birliklarda ifodalananadi (B/l).

## SIFAT NАЗОРАТИ

Nazorat zardobi tahsil protsedurasi bajarilishini monitoring qilish uchun tavsija etiladi. Agar nazorat qiymatlari belgilangan diapazonдан tashqarida topilsa, muammoni bartaraf etish uchun asbob, reaktivlar va kalibratorni tekshiring. Agar nazoratlar maqbul topilgan chidamlikni qoniqtirmasa, har bir laboratoriya shaxsiy Sifat tekshiruvlari sxemasi va tuzatuvchi xattiharakatlari o'rnatishi kerak.

Oddiy yoki Patologik (HBC01 va HBC02) inson zardobi yaroqli hisoblanadi.

## QIYOSLASH QIYMATLARI

≤38 B/l (B/l 37°C temperaturada metilrezorufin)

Ushbu qiymatlar taxmini maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lib, har bir laboratoriya o'zining shaxsiy diapazonini belgilashi kerak.

## ISHLASH XUSUSIYATLARI

O'lchovdi diapazoni: sezgirlik chegarasi 5 B/l dan uzunlik chegarasiga 250 B/l. Agar olingan natijalar uzunlik chegarasi 250 B/l dan kattaroq bo'lsa, namunani 9g/l li 1/10 fizik eritma bilan aralashtiring, tekshirishni takrorlang va olingan natijani 10 ga ko'paytiring.

Aniqlik (takroriylik, qaytarish):

	Intra- tekshirish (n=20)		Inter- tekshirish (n=20)	
Qiymatic (E/l)	40.2	59.35	38.5	58.9
SD	0.410	0.875	1.10	1.25
CV (%)	1.02	1.47	2.86	2.13

Sezuvchanlik: 1 U/L = 0.0006 ΔAbs./daq.

Aniqlik: CYPRESS DIAGNOSTICS reaktivlaridan foydalanilganda olingan natijalar boshqa tijorat reaktivlari bilan taqqoslaganda, tizimli farqni ko'rsatmadи.

## O'zarо ta'siri

300 mg/dl Trigliceridlar fermentlar faolligini 6% kamaytirib, aniqlanmishga ta'sir ko'rsatadi. 150 mg/dl dagi Gemioglobin va 20 mg/dl Bilirubinga ta'sir ko'rsatmaydi. Aniqlashda o'zarо ta'sir ko'rsatuvchi dori-darmonlar va boshqa moddalar Young et.al hisobotida ma'lum qilingan.

## ESLATMALAR

1. Ayrim saqlash sharoitlarda (ko'rsatilganidan pastroqda) flakonda cho'kma paydo bo'lishi mumkin, bu esa reaktivlarning ishlashiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bilan birga, kuchli rotatsiya vositasida mahsulotni qayta ishlab chiqarish tavsiya etiladi.

2. Ifloslanishning oldini olish uchun bir martalik materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

## Bibliografiya

McNeely M. Lipase. Kaplan A et al. Clin Chem The C.V. Mosby CO. St Louis. Torronto. Princeton 1984; 1130-1134, 892

Neumann U. et al. Comptes Rend. 4 colloque de Pont-a-Musson, Masson 1979, 627-634.

Junge W. et al. J.Clin. Chem.Clin.Biochem., 1983, 21 : 445-451.

Neumann U. et al. Method of Enzymatic Analysis, 3rd ed. 1984, vol 4: 26-34.

Young DS. Effects of drugs on Clinical Lab. Tests, 4th ed AAC Press 1995

Young DS. Effects of diseases on Clinical Lab. Tests, 4th ed AAC 2001

Burtis A et al. Tietz Textbook of Clinical Chemistry, 3rd ed AAC 1999

Tietz N W et al. Clinical Guide to Laboratory tests, 3rd ed AAC 1995.